XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Beshariq tumani, Oltin vodiy ko‘chasi 160-uy tel (73) 612-20-08

2023 - yil 1 - dekabr VI-94-125-11-153-K/23 Beshariq tumani hokimligi

Beshariq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati Beshariq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra O‘zbekiston Respulikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati Beshariq tumani hududidagi

ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tumanning umumiy peremetri 691107,03 metr, tuman umumiy maydoni 75067,02 gektar ekanligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori “Beshariq tongi” gazetasida hamda tuman hokimligining internetdagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta’minlab borishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o‘rinbosari (A.Umarov) va Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (M.Madaminov) belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Q.Ismatullayeva) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (R.Saydaliyev) zimmasiga yuklansin

6.Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 1-dekabrdagi
VI-94-125-11-153-K/23-son qaroriga
1-ilova

Beshariq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

MA’LUMOT

Shaharni umumiy peremetri 26400,22 metr, umumiy maydoni 921,97 gektar ekanligi aniqlandi.

Beshariq shahar umumiy peremetri 26400,22 metr, umumiy maydoni 921,97 gektar.

Shaharchalarning umumiy peremetri 106042,77 metr, umumiy maydoni 2357,34 gektar ekanligi aniqlandi.

Shu jumladan:

Beshariq shaharchasining umumiy peremetri 26400,22 metr, umumiy maydoni 921,97 gektar.

Zarqaynar shaharchasining umumiy peremetri 10364,09 metr, umumiy maydoni 276,15 gektar.

Qumqishloq shaharchasining umumiy peremetri 8855,92 metr, umumiy maydoni 188,72 gektar.

Rapqon shaharchasining umumiy peremetri 13860,11 metr, umumiy maydoni 314,13 gektar.

Tovul shaharchasining umumiy peremetri 12338,15 metr, umumiy maydoni 264,75 gektar.

Manguobod shaharchasining umumiy peremetri 9422,22 metr, umumiy maydoni 179,20 gektar.

Oqtovuq shaharchasining umumiy peremetri 10263,68 metr, umumiy maydoni 165,74 gektar.

Chimboy shaharchasining umumiy peremetri 14232,08 metr, umumiy maydoni 224,07 gektar.

Kapayangi shaharchasining umumiy peremetri 10250,16 metr, umumiy maydoni 287,14 gektar.

Nafosat shaharchasining umumiy peremetri 6582,34 metr, umumiy maydoni 139,83 gektar.

Uzun shaharchasining umumiy peremetri 9874,02 metr, umumiy maydoni 317,60 gektar.

Qishloq yerlarining umumiy peremetri 558664,04 metr, umumiy maydoni 71787,70 gektar ekanligi aniqlandi.

Shu jumladan:

Andarxon qishlog‘ining umumiy peremetri 72543,02 metr, umumiy maydoni 13772,96 gektar.

Beshariq qishlog‘ining umumiy peremetri 62270,60 metr, umumiy maydoni 8712,18 gektar.

Beshsari qishlog‘ining umumiy peremetri 58853,77 metr, umumiy maydoni 6016,91 gektar.

Vatan qishlog‘ining umumiy peremetri 52639,56 metr, umumiy maydoni 4002,92 gektar.

Qashqar qishlog‘ining umumiy peremetri 81527,05 metr, umumiy maydoni 18914,74 gektar.

Qorajiyda qishlog‘ining umumiy peremetri 59864,39 metr, umumiy maydoni 6979,88 gektar.

Rapqon qishlog‘ining umumiy peremetri 48006,98 metr, umumiy maydoni 3999,08 gektar.


Tovul qishlog‘ining umumiy peremetri 64127,95 metr, umumiy maydoni 3826,69 gektar.

Yakkatut qishlog‘ining umumiy peremetri 58830,73 metr, umumiy maydoni 5562,36 gektar.

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 1-dekabrdagi
VI-94-125-11-153-K/23-son qaroriga
2-ilova

Farg'ona viloyati Beshariq tumanining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

SXEMASI



T/R	Shaharcha nomi
1	Qumqishloq shaharchasi
2	Zarqaynar shaharchasi
3	Oqtovuq shaharchasi
4	Chimboy shaharchasi
5	Tovul shaharchasi
6	Uzun shaharchasi
7	Nafosat shaharchasi
8	Manguobod shaharchasi
9	Kapayangi shaharchasi
10	Rapqon shaharchasi

Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	*Furqat tumani yerlari*
B dan D gacha	*O'zbekiston tumani yerlari*
D dan A gacha	*Tojikiston Respublikasi yerlari*

Shartli belgilar

- *Qishloqlar maydoni*
- *Shaharcha maydoni*
- *Tuman chegarasi*